



PRESS-RELIZ

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ “MUFG” banki bilan 150 mln. AQSh dollarlik ikki tomonlama kredit shartnomasini imzoladi

2024-yilning avgust oyida “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ (“NKMK” AJ) va “MUFG” banki o’rtasida 150 mln. AQSh dollari miqdorida ikki tomonlama kredit shartnomasi imzolandi.

Ushbu kredit mablag’lari NKMKnинг amaldagi investitsiya dasturining loyihibalarini uzluksiz moliyalashtirishni ta’minlaydi. Bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan loyihibalar qayta ishlash quvvatlari va ishlab chiqarish hajmini oshirish, konlarni o’zlashtirish, yangi ishlab chiqarish obyektlarlarini ishga tushirish va amaldagilarini modernizatsiya qilish hisobiga yangi ish o’rinlarini yaratishga qaratilgan.

“Mitsubishi UFJ Financial Group, Inc.” (“MUFG”) dunyodagi yetakchi moliyaviy guruhlardan biridir. “MUFG” bosh ofisi Tokioda joylashgan va 360 yildan ortiq tarixga ega. Kompaniya 40 dan ortiq mamlakatlarda 2 000 ga yaqin filiallardan iborat global tarmoqqa ega. Guruh 120 000 ga yaqin xodimlarga ega bo’lib, tijorat bank xizmatlari, qimmatli qog’ozlar, kredit kartalar, iste’molchi moliyasi, aktivlarni boshqarish va lizing xizmatlarini taklif etadi.

“NKMK” AJ Matbuot xizmati